
Paralimpiyachi sportchilar o'rtasida "Tuman hokimi kubogi" o'tkazildi

So'nggi yillarda mamlakatimizda ommaviy sporti rivojlantirish uchun keng ko'lamdagi ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, parolimpiya o'yinlarida ishtirok etayotgan sportchilarga katta e'tibor berilmoqda. Buning natijasida paraolimpiyachilarimiz Jahon va Osiyo miqiyosidagi musobaqalarda yuksak natijalarni qayd etishib, yurtimiz dovrug'ini oshirishda munosib hissalarini qo'shib kelishmoqda. Quvonarlisi, ana shunday sportchilari orasida rishtonlik Dilafruz Ahmatxonova ham bor. Yaqinda Rishton tumani Bolalar o'smilar sport maktabi qoshida paraolimpiya sporti shakllantirilgan edi. Bugungi kunda BO'SMida paradzyudo va pauerlifting bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazilmoqda. Kecha Rishton tumani Bolalar o'smirlar sport maktabi filialida Paralimpiyachi sportchilar o'rtasida paradzyudo, para yengil atletika, para pauerlifting bo'yicha "Rishton tuman hokimi kubogi" musobaqasi bo'lib o'tdi. Ushbu musobaka haqiqiy bayramga aylandi.

2022-05-15 18:21:34